XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI





# XORAZM VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2022- YIL YANVAR-OKTABR***
***(DASTLABKI MA’LUMOT)***



# Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-oktabr oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 14 690,2 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 115,5 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelgan va uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,3 %ni tashkil etdi.

| 0,007% | 96,305% | 3,019% | 0,669% |
|---|---|---|---|
| B | C | D | E |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish |

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da

| | 2021- yil yanvar-oktabr | 2022- yil yanvar-oktabr |
|---|---|---|
| B | 68,3 % | 9,1% |
| C | 115,4 % | 112,4 % |
| D | 100,0% | 174,1 % |
| E | 90,6 % | 97,7 % |

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 12,4 % ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 74,1 % ga o‘sishi kuzatildi, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 90,9 % ga, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimining 2,3 % ga kamayishi kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

**Yanvar-oktabr**

**2022- yil**
**1,0 mlrd so‘m**

**2022- yil**
**9,1 %**

**2021- yil**
**4,2 mlrd so‘m**

**2021- yil**
**68,3 %**

**B**

*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,0 mlrd so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,007 %ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**

**2021- yil**
**B**
**0,040%**

**2022- yil**
**B**
**0,007 %**

**yanvar-oktabr**

## Ishlab chiqaradigan sanoat




*2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14 147,4 mlrd so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,3 %ini tashkil etdi.*

**2021- yil yanvar-oktabr** — **96,5 %**

**2022- yil yanvar-oktabr** — **96,3 %**

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,10 %ni (2021- yilning yanvar-oktabr oylarida – 0,16 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 41,7 %ni (2021- yilning yanvar-oktabr oylarida – 40,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 4,0 % (2021- yilning yanvar-oktabr oylarida – 5,7 %) va quyi texnologiyalisi – 50,6 % (2021- yilning yanvar-oktabr oylarida – 49,9 %)ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 44,2 % (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,3 % (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,1 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 21,5 % (2021-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 28,9 % (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 136,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,7 % (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 69,4 %)ni, yog`och va po`kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to`qish uchun materiallardan buyumlar, qog`oz va qog`oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 1,5 % (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 132,7 %)ni tashkil etdi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %da **

### Paxta tolasi




### Paxta chigiti




### Paxtadan yigirilgan ip




### Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz)




### Maxsus yengil avtomobillar












*2022- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 57326,3 tonna (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 25,2 % ga oshgan), paxta chigiti 105780,5 tonna (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 16,4 % ga oshgan), 27 611,1 tonna paxtadan yigirilgan ip (12,5 % oshgan), 5 9164 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillarsiz) (29,6 % oshgan), 16 403 dona maxsus yengil avtomobil (30,5 % ga oshgan), o‘simlik yog‘i 7 411,7 tonna (59,1 % kamaygan), xo‘jalik sovuni 1 638,2 tonna (54,3 % kamaygan) hamda 72 766,1 tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (100,5 % bo‘lgan) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-oktabr | 2022- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz),dona | 45644 | 59164 | 13520 |
| Maxsus yengil avtomobillar, dona | 12571 | 16403 | 3832 |
| Paxtadan yigirilgan ip,tonna | 24534,8 | 27611,1 | 3076,3 |
| Paxta tolasi,tonna | 45799,3 | 57326,3 | 11527 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, tonna | 72382,1 | 72766,1 | 384,0 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), tonna | 18106,6 | 7411,7 | -10694,9 |

*yanvar-oktabr , yirik korxonalar bo‘yicha*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*2020- yil yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,9 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 94,1 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,8 %ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 8,7 %ga ko‘paygan va ishlab chiqarish hajmi 3 2189,4 mlrd so‘mni tashkil etdi.*




## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




*2020- yil yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,4 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,1 %ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 170,1 %ga ko‘paygan va ishlab chiqarish hajmi 864,8 mlrd so‘mni tashkil etdi.*

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*2020- yil yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,0 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 122,0 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,9 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 95,8 %ni, ishlab chiqarish hajmi 2 959,3 mlrd so‘mni tashkil etdi.*



## Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*2020- yil yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 245,0 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 80,0 %ni va ishlab chiqarish hajmi 144,6 mlrd so'mni tashkil etdi.*




## Asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*2020- yil yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,13 %ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 135,7 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 63,6 %ni va ishlab chiqarish hajmi 14,4 mlrd so'mni tashkil etdi.*

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*2020- yil yanvar-oktabr oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 131,4 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 %ni, fizik hajm indeksi 60,2 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 65,4 mlrd so'mni tashkil etdi.*



## Elektr uskunalar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 91,3 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni, fizik hajm indeksi 133,2 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 36,8 mlrd so‘mni tashkil etdi.




## Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish




2020- yil yanvar-oktabr oylarida boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 34,6 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 %ni, fizik hajm indeksi 93,9 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 376,7 mlrd so‘mni tashkil etdi.

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-oktabr oylarida avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 49,4 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 115,2 % .

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 40,2 %ni, fizik hajm indeksi 116,6 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5 680,9 mlrd so‘mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 443,6 mlrd so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,0 %ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 74,1 %ga oshganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-oktabr | 2022- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln kVt.s | 138,9 | 454,7 | 315,8 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 76,5 | 46,3 | -30,2 |
| Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar, ming so‘m | 1489285,0 | 1485340,0 | -3945,0 |

*Yanvar – oktabr, yirik korxonalar bo‘yicha*

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 98,2 mlrd so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 %ini) tashkil etdi.




### Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-oktabr | 2022- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *ming so‘m*** | 4309925,0 | 5128457,0 | 818532 |
| **Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar, *ming so‘m*** | 112276442,0 | 114263625,0 | 1987183,0 |
| **Xavfsiz chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha xizmatlar, *ming so‘m*** | 20596648,0 | 17233181,0 | -3363467,0 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 19,0 %ga, tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar 1,8 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 9 310,1 mlrd so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 127,1 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 63,4 %ni tashkil etdi.*

### Oziq-ovqat mahsulotlari

**2021- yil yanvar-oktabr** — **38,8%**

**2022- yil yanvar-oktabr** — **39,9%**

### Nooziq-ovqat mahsulotlari

**2021- yil yanvar-oktabr** — **61,2%**

**2022- yil yanvar-oktabr** — **60,1%**

*Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 66,6 %ni, Urganch shahrida 15,0 %ni va Urganch tumanida 3,7 %ni tashkil etdi.*

*Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (127,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida (151,2 %), Yangibozor tumanida (157,4 %), qayd etildi.*

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo‘yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal’a tumaniga to‘g‘ri kelib 66,6 %ni, Urganch shahrida 15,0 %ni va Urganch tumanida 3,7 %ni tashkil etdi.*




*7 326,5* *mlrd so‘m*
*2021- yil yanvar-oktabr*

*9 310,1* *mlrd so‘m*
*2022- yil yanvar-oktabr*




Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2021- yil** **109,0 %**

**2022- yil** **127,1 %**

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat bo‘yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal’a tumaniga to‘g‘ri kelib 79,8 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 6,3 %ni, Xonqa tumanida 2,2 %ni tashkil etdi.*

**4 482,7** mlrd so‘m

*2021- yil yanvar-oktabr*

**5 592,1** mlrd so‘m

*2022- yil yanvar-oktabr*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi

109,7%
**2021- yil**

124,7 %
**2022- yil**



## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo‘yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal’a tumaniga to‘g‘ri kelib, 46,8 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 27,9 %ni, Urganch tumanida 6,1 %ni tashkil etdi.*




*2 843,8 mlrd. so‘m*

*2021- yil yanvar-oktabr*

*3 718,0 mlrd. so‘m*

*2022- yil yanvar-oktabr*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

**107,9 %**

**2021- yil**

**130,7 %**

**2022- yil**

## Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

*Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 52,5 %, shuningdek, Urganch shahrida 17,2 %ni, Urganch tumanida 5,0 %ni, Xonqa tumanida 3,8 %ni tashkil etdi.*

### Xorazm viloyati

**2021- yil** *yanvar-oktabr*
10 600,9 mlrd so'm

**2022- yil** *yanvar-oktabr*
14 690,2 mlrd so'm



114,3 %
**2021- yil**

115,5 %
**2022- yil**

| Hudud | FHI, % da | mlrd so'm |
|---|---|---|
| Xorazm viloyati | 115,5 | 14 690,2 |
| Urganch shahri | 115,5 | 2 533,5 |
| Xiva shahri | 106,8 | 184,5 |
| Bog'ot tumani | 112,2 | 428,2 |
| Gurlan tumani | 108,3 | 386,3 |
| Qo'shko'pir tumani | 101,8 | 303,5 |
| Urganch tumani | 112,0 | 728,7 |
| Hazorasp tumani | 104,5 | 374,8 |
| Tuproqqal'a tumani | 113,1 | 7 706,2 |
| Xonqa tumani | 106,5 | 555,8 |
| Xiva tumani | 102,1 | 197,7 |
| Shovot tumani | 102,5 | 549,2 |
| Yangiariq tumani | 116,0 | 307,8 |
| Yangibozor tumani | 122,3 | 434,0 |

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal’a tumanida (135 099,7 ming so‘m), Urganch shahrida (17 135,9 ming so‘m) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (9 546,5 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.*

| | o‘sish sur’ati | ming so‘m |
|---|---|---|
| Xorazm viloyati | 113,6 | 7 589,4 |
| Urganch shahri | 113,7 | 17 135,9 |
| Xiva shahri | 104,9 | 1 926,2 |
| Bog‘ot tumani | 110,3 | 2 510,7 |
| Gurlan tumani | 106,5 | 2 527,9 |
| Qo‘shko‘pir tumani | 100,3 | 1 715,3 |
| Urganch tumani | 109,8 | 3 523,1 |
| Hazorasp tumani | 103,2 | 1 874,9 |
| Tuproqqal’a tumani | 109,6 | 135 099,7 |
| Xonqa tumani | 104,7 | 2 883,7 |
| Xiva tumani | 100,6 | 1 314,1 |
| Shovot tumani | 100,9 | 3 133,4 |
| Yangiariq tumani | 114,2 | 2 574,7 |
| Yangibozor tumani | 120,4 | 4 826,0 |

### Xorazm viloyati

**2021- yil** *yanvar-oktabr*

**5 568,0 ming so‘m**

**2022- yil** *yanvar-oktabr*

**7 589,4 ming so‘m**



**2021- yil** 112,6 %

**2022- yil** 113,6 %

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 344,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 16,0 %ni tashkil etdi.*




### Xorazm viloyati

**2021- yil** *yanvar-oktabr*

**2 065,8 mlrd so‘m**

**2022- yil** *yanvar-oktabr*

**2 344,8 mlrd so‘m**



**23,8 %**

**2021- yil**

**16,0 %**

**2022- yil**

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 4 809,9 ming so‘m bo‘lgani holda, Tuproqqal’a tumanida 108 681,5 ming so‘mni, Urganch shahrida 9 418,7 ming so‘mni tashkil etdi.*

### Xorazm viloyati

**2021- yil** *yanvar-oktabr*

3 848,2 ming so‘m

**2022- yil** *yanvar-oktabr*

4 809,9 ming so‘m



107,4 % — 2021- yil

125,0 % — 2022- yil

| | o‘sish sur’ati | ming so‘m |
|---|---|---|
| Xorazm viloyati | 125,0 | 4 809,9 |
| Urganch shahri | 148,8 | 9 418,7 |
| Xiva shahri | 101,0 | 1 381,5 |
| Bog‘ot tumani | 98,7 | 873,3 |
| Gurlan tumani | 119,7 | 955,8 |
| Qo‘shko‘pir tumani | 95,4 | 465,5 |
| Urganch tumani | 120,0 | 1 663,6 |
| Hazorasp tumani | 111,2 | 440,4 |
| Tuproqqal’a tumani | 122,5 | 108 681,5 |
| Xonqa tumani | 114,8 | 1 541,9 |
| Xiva tumani | 102,6 | 632,0 |
| Shovot tumani | 102,3 | 797,8 |
| Yangiariq tumani | 118,8 | 1 036,9 |
| Yangibozor tumani | 155,0 | 1 338,7 |

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*Bugungi kunda viloyatda 4 736 ta sanoat korxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 865 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 18,3 % ) Urganch shahriga, 548 tasi (11,6 %) Urganch tumaniga, 432 tasi (9,1 %) Qo‘shko‘pir tumaniga, 408 tasi (8,6 %) Xonqa tumaniga va 393 tasi (8,3 %) Xiva shahriga to‘gri kelmoqda.*




### Jami yangi tashkil etilgan

**2021- yil** — 836 dona

**2022- yil** — 1071 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

**2021- yil** — 4 218 dona

**2022- yil** — 4 736 dona